

YOSHLARDA VATANPARVARLIK G'YOYALARINI SHAKLLANTIRISHDA XALQ PEDAGOGIKASINING O'RNI

Ajiniyaz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti
Bekniyazova Elmira Qaipnazarovna

Annotatsiya. Mazkur maqolada yosh avlodni tarbiyalash jarayonida ulardagi vatanparvarlik g'oyalarni shakllantirishda xalq pedagogikasining o'rni va ro'li yoritib berilgan. Shuningdek, xalq og'zaki ijodida saqlanib qolgan pedagogik omillar haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'z: Xalq pedagogikasi, tarbiya, ta'lim, qadriyatlar, xalq og'zaki ijodi, ta'lim samaradorligi.

Abstract. In this article, the place and role of folk pedagogy in the formation of patriotic ideas in the process of educating the young generation is highlighted. Pedagogical factors preserved in folklore are also discussed.

Key word: Folk pedagogy, upbringing, education, values, folklore, educational effectiveness.

So'ngi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlar yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish jarayonida xalqimiz yaratgan pedagogik qarashlar, g'oyalar, milliy odob-axloq an'analari, xalq ommasining turli davrlar mobaynida turmush faoliyati jarayonida to'plagan boy tajribalari hamda xalq og'zaki ijodining barcha yo'nalishlarini o'z ichiga qamrab olgan xalq pedagogikasiga tayanilayotgani juda axamiyatlidir.

Azal-azaldan o'zbek xalqi bola tarbiyasiga alohida e'tibor berib keladi. "Bola - aziz odobi undan aziz", "Odob bozorda sotilmas", "Odobli bola elga manzur" kabi maqollar ham bejiz aytilmagan bu degani uzoq tarixdan o'zbek xalqi bolalarga ta'lim va tarbiya berishni uzviy va uzlusiz olib borilgan bo'lib, u o'zbek xalqi pedagogikasining nodir va mukammal bo'lishiga olib kelgan. Balki sizda savol tug'ular xalq pedagogikasi atamasi ma'nosi haqida. Xalq pedagogikasi – xalq ma'naviy madaniyatining asosiy tarkibiy qismidir. Shunday ekan Vatanimizda ilk pedagogik tasavvurlarning vujudga kelishi, rivojlanishi va albatta taraqqiyoti ham mahalliy xalq ma'naviy madaniyatining yuksalishi bilan bog'liqdir. Xalq pedagogikasining rivoji esa nazariy pedagogika ilmi taraqqiyoti bilan bevosa bog'liq. Biz ushbu holni Markaziy Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyoti misolida ko'rishimiz mumkin. Abu Nasr Farobi, Ibn Sino, Beruniy, Jomiy, Xorazmiy, Dehlaviy, Navoiy, Forobi, Sa'diy, Nosir Xisrav va boshqa mutafakkirlar ilmiy merosi tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning ta'lim-tarbiyaviy fikrlari bevosa xalq pedagogikasi manbalari tizimi: maqollar, matallar, ertaklar, afsona va rivoyatlar mantiqiga mos keladi. Hozirgi

kunda ko‘plab rivoyatlar va ertaklar mazkur mutafakkirlarning hayoti va faoliyati bilan bog‘liq holda vujudga kelgan.

Har bir millatning, xalqning o‘z tarixi, urf-odatlari, an’analari, ma’naviy va moddiy qadriyatlari asosida yaratilgan pedagogikasi mavjud. Huddi mana shu xalq pedagogikasi asosida shaxsni tarbiyalash va ta’lim berish hozirgi zamonning dolzarb muammolaridan biridir. Butun dunyo xalqlarining pedagogik madaniyati bilan juda qiziqqan rus yozuvchisi, ma’rifatparvari V.G.Belinskiy: “Har bir millatning o‘ziga xosligi, asosan faqat shu millatga xos dunyoqarash, din, til, urf-odatlar va an’analardir”, -deydi. O‘tmishda yig‘ilgan ma’rifiy boyliklarni buyuk yunon faylasuf Gegel “o‘zidan kuch taratuvchi ona yer” bilan taqqoslagan. Uning ta’kidlashicha, “Ilm-fan va ta’limning har bir yangiligi uning qadimiylikka murojaatidan kelib chiqadi”. Demak, madaniyatning, jumladan pedagogik madaniyatning an’anaviyligi xalqlarning yuqori madaniyatining muhim belgisidir. Buyuk alloma Abu Nasr Forobiy: “Xalqlaming o‘z qadimiy madaniyatiga e’tibori va qiziqishning uyg‘onishi ularning xaqiqiy donoligidan dalolatdir”¹ - deydi. Folklorshunos T.Mirzaev ta’rifi bilan aytganda: “Xalqimiz antic davr va o‘tgan asrlarning klassik epopeyalari – “Iliada” va “Odisseya”, “Maxobxorat” va “Ramayana”, “Igor jangnomasi” va “Shohnoma”, “Manas” va “Jangar” kabi shoh asarlar bilan bellasha oladigan va ular bilan teng turgan hayratomuz dostonlarga, rang-barang ertaklarga, xalqning hayot tajribalarini o‘zida mujassamlashtirgan ajoyib maqol va matallarga, juda ko‘p topishmoqlar, latifalarga egaki, bular ma’naviyboyligimiz, zo‘r iftixorimizdir”². Demak, xalq pedagogikasi xalq ommasining turmush faoliyati jarayonida to‘plangan, jamlangan va avloddan-avlodga o’tib kelayotgan tarbiya borasidagi tajriba va bilimlari jamlanmasidir.

Xalq pedagogikasi - tarbiyaning maqsad va vazifalari borasida muayyan xalqning hayotiy tajribasi hamda turmush tarzida shakllangan amaliy qarashlar majmui; muayyan jamiyatda yashash uchun har bir odam amal qilishi shart sanalgan va urfodat, udum, xulqodob, marosim, an’ana, turmush tarzi, badiiy ijod, uyin singari empirik vositalarda namoyon buladigan amaliy faoliyat hamdir. Xalq pedagogikasi fonda “etnopedagogika” deb ham yuritiladi.

Xalq pedagogikasi xalq ma’naviyati va madaniyatining uzviy tarkibiy qismi sanaladi. Chunki, tarbiya va yosh avlodni shakllantirish masalalari xalq kelib chiqqan vaqtidan boshlab amal qilib keladi. Xalq o‘z urf-odatlari, qadriyatlari, nizomlari, mentaliteti tarkibida har vaqt qanday qilib yosh avlodni tarbiya qilmoq lozim, qanday qilib ularga axloqiy normalarni sngdirish mumkin, farzandlarni qanday qilib sog’lom, tafakkurli va baxtli qilib voyaga yetkazish mumkin degan

¹ Форобий Абу Наср. Рисолалар. -Т.: Фан, 1975

² Т.Мирзаев. Ходи Зариф. -Т.: Ф.Гулом, 1967

savollarga o'z javoblarini izlab, ularni avloddan avlodga odat, rasm-rusum, qadriyat sifatida yetkazib kelganlar.

Shunga ko'ra, xalq pedagogikasining kelib chiqishi eng qadimiy davrlarga borib taqaladi, uning mazmuni rangbarang, u kasbiy tarbiya masalalarga doir barcha dolzarb muammolarni o'zida aks ettiradi³.

O'zbek xalqining milliy-tarixiy pedagogik an'analarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ilk tarbiyaviy qadriyatlar, norma va talablar xalq hayotiy tajribasi, xalqning pedagogik madaniyati asosida shakllangan. O'zbek xalqi tarbiyaviy an'analari tarkibida esa kasbiy ta'lif va hunarga o'rgatish masalalari eng mo'tabar va kuchli o'rnlardan birini egallaydi. Shunga ko'ra, talaba-yoshlarning individual shaxsiy xususiyatlarni shakllantirish masalasini tadqiq etishda xalq pedagogikasidagi tajribalarni nazarga olishva ulardan zamonaviy pedagogik tamoyil va nazariyalarni ishlab chiqish va tatbiq etishda unumlifoydanish taqozo etiladi.

Zamonaviy pedagogik ta'limga xos bo'lgan xususiyatlardan biri ham xalq pedagogikasi bilan rasmiy pedagogik ilmlarni o'zaro bog'liqlik va uzviylikda talqin etishda namoyon bo'ladi. Chunki, xalq pedagogikasi xalqning azaliy va asrlarga teng hayotiy tajribasi asosida hosil bo'ladi, xalq pedagogikasi o'zida turli rasmiy ta'sirlardan holilikni, mustaqillikni namoyon etadi, xalqning haqiqatan ham mavjud orzu umidlari va sayiharakatlarini o'zida mujassam etadi. Xalq ijodiga, xalq urf-odatlariga, xalq maqol, matal, aforizmlari, qo'shiqlari, milliy bayramlari va o'yinlari, bolalar o'yinlariga tegishli bo'lgan an'analarda xalqning yosh avlod tarbiyasiga bo'lgan e'tibori va talablari singdirilgan bo'ladi.

Xalq pedagogikasida inson shakllanishiga doir chuqur va betakror gumanizm, ya'ni insonparvarlik g'oyalari yotadi. Xalq farzandlarda yuksak ma'naviy qadriyatlarni tarbiya qilishga har bir davrlarda urinib kelgan. Ularning ichida mehnatsevarlik, kattaga hurmat, kichikka izzat, oqillik,adolatpeshalik, mehr, muruvvat, bir burda nonni ham bo'lishib yeyishlik, xalqning og'irini yengil qilish, do'stlik, birodarlikni qo'llab-quvvatlash, haqiqatgo'ylik, birovning haqiga xiyonat qilmaslik, halol luqma yeyishlik, pokmadonlik kabilar har vaqt qadrlangan. Mazkur insoniy xislat va xususiyatlar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan bo'lib, o'zbek xalqining donishmandligi va ruhan, ma'naviy jihatdan irodali ekanligidan dalolat beradi.

Xalq pedagogikasi bu –tarixiy-ijtimoiy fenomen sanaladi. Xalq pedagogikasi – ajdodlarning ma'naviy merosi va uning ko'zgusi hisoblanadi. Shunga ko'ra, o'zbek xalqining inson tarbiyasiga oid qadriyatları zamonaviy pedagogik qarashlarni boyitishga xizmat qiladi.

³ D.M.Begmatova. O'zbek oilalarida yoshlarningkasbiy ijtimoiylashuvi. Monografiya. -Samarqand:SamDChTI, 2020. - 142 b.

Xalq pedagogikasining an'anaviy asoslaridan biri bu –mehnat tarbiyasi, farzandlarni kasb hunarlarga o'rgatish tajribasi hisoblanadi. Xalq pedagogikasi kasbiy ta'lif masalalarida quyidagi pedagogik funksiyalarini bajarishga xizmat qiladi⁴:

- shaxsning kasbiy va hunar malakalarini shakllantrishda tashkiliy-axborot ulashish, axborot bilan ta'minlash funksiyasi;
- shaxsning kasbiy va hunar malakalarini shakllantirishda o'zaro muloqot olib borish va kommunikativlik funksiyasi;
- shaxsning kasbiy va hunar malakalarini shakllantirishda xalq an'analarini davomiy, uzlusiz va an'anaviy tarzda avloddan avlodga o'tkazish, ya'ni o'tkazuvchanlik funksiyasi;
- shaxsning kasbiy va hunar malakalarini shakllantrishda xalq udumlari, odatlari, urlari va metalitetini saqlash orqali ularni yosh avlod tafakkurida qayta shakllantirish va qadriyat darajasiga ko'tarish funksiyasi;
- shaxsning jamoa bilan munosabatlarini o'zaro aloqadorlik va ikki tomonlama o'zaro foydalilik asosiga qurish funksiyasi

Xalq pedagogikasi o'z faoliyatini bolaning eng kichiklik, murg'aklik davridanoq boshlashi bilan belgilaydi. Bu davr bola shakllanishida uning eng muhim hayotiy ehtiyojlarining yuzaga kelishi va ta'minlanishi jarayoni sanaladi. Mana shu ehtiyojlar ichida so'zlasha olish, mustaqil ovqat yeyish, oyoqqa turish va yurib ketish kabilar muhim ahamiyat kasb etadi. Xuddi shu davrda oilaviy tarbiya yordami bilan xalq pedagogikasining eng muhim ma'naviy-mafkuraviy, ma'rifatparvarlik aqidalari bola ongiga singdiriladi va uning malaklari shakllantiriladi. Binobarin, aynan xalq pedagogikasi, oilaviy pedagogika bilan hamkorlikda shaxsning kasbiy aqidalari, tafakkuri va malakalarining shakllanishidagi ilk bosqichlardan biri hisoblanadi.

Xalq pedagogikasining o'ziga xos xususiyati shundaki, u insonlar yashash tarzi, ularning o'zaro muloqoti, nimalarni xush ko'rishi, nimalardan voz kechishi, nimalarni qadrlashi orqali insonni tarbiyalaydi⁵ [3]. Shunga ko'ra, bolalik davridagi mehnat tarbiyasi insonning butun umri davomidagi kasbiy malaklarining darajasi va sifatiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

⁴ Muxtarovna B.D. OILADA YOSHLARNING KASBIY IJTIMOIYLASHUVINI TA'MINLASHDA O'ZBEK XALQ IJODIYOTI //INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. –2021. –T. 2. – No. 5. –S. 25-33.

⁵ Mukhtarovna B. D., Kudratovna D. N. PROFESSIONAL SOCIALIZATION OF YOUTH IN FAMILY EDUCATION. –2022.

Tabiiyki, xalq pedagogikasi oliy ta'limgarayonida yaxlit xoldagi tizimlashgan qurilma sifatida ish ko'rmaydi, balki bilim, qadriyat, ustama, norma va ta'qiqlar majmuasi sifatida ish ko'radi.

Xalq pedagogikasi turli aniq ifodalangan formulalar, ya'ni aforizmlar, maqollar, matallar, hikmatlar tarzida uzoq hayotiy tajribadan o'tkazilgan xalq tajribasini ifoda qilib, ularni tayyor holda namoyon qiladi. Yoshlar ham oilada xalq merosi namunalarini tahlilsiz, amal qilish lozim bo'lgan aqidalar tarzida qabul qilib, o'z hayotida ularga qat'iy rioya etishga o'rgatilgan bo'ladi. Chunki, xalq pedagogikasi ko'proq xalq tajribasi va hayotiy tajriba asosiga qurilgan bo'ladi. Shuning uchun ham xalqpedagogikasi bu -amaliy pedagogik tajribaning umumlashtirilgan formasi sanaladi.

Pedagogika fanida Xalq pedagogikasiga xos bir necha belgilar mavjud bo'lib, eng muhim belgilaridan biri bu - uning qadimiyligidir. Har qanday xalq muayyan etnos sifatida mavjud bulishi uchun o'ziga xos qiyofaga ega bo'lishi kerak. Xalqning ijtimoiy, ma'naviy, intellektual qiyofasi esa uning ped. vositasidagina shakllanadi. Xalq pedagogikasi muayyan xalqning o'zi bilan birga dunyoga kelgani uchun ham uning tarixi xalq tarixi bilan teng.

Xalq pedagogikasining ikkinchi belgisi uning to'liqamaliy xususiyatga egaligidir. Xalq ta'limgarayonida jarayoni va uning natijalariga pragmatik nazar bilan qaragani uchun Xalq pedagogikasi g'oyalar shaklida emas, balki urfodat, an'ana, amal, udum, xulqodoblar tarzida namoyon bo'ladi. Xalq pedagogikasi ta'limgarayonida haqidagi fikrlar yig'indisi emas, balki amal qilinishi majburiy bo'lgan va bajarilishi hamma tomonidan nazorat qilinadigan amaliy xulqiy ko'nikmalar va shaxsiy ko'nikmalar majmuidir.

Xalq pedagogikasining uchinchi xususiyati uning muallifi noma'lum, anonim pedagogika ekanligidir. Xalq pedagogikasi talablarining yaratuvchisi ma'lum bo'lmaganligi uchun ham muqaddas sanalgan va so'zsiz bajarilgan. Etnopedagogikaga doyr biror talabning muallifi ma'lum bo'lsa, uning ta'siri pasayib ketadi. Chunki u, kim bo'lsada, qandaydir bir odamning istagi sifatida qabul etiladi. Anonimlik esa urfodat, udum, xulqodatlarga sirlilik, muqaddaslik tusini beradi.

Xalq pedagogikasining to'rtinchi belgisi uning sinkretik (qorishiq) xususiyatga egaligidir. Xalq hayoti ko'p qirrali ekani holda yaxlit bo'lgani singari uning ped. si ham qorishiqdir. Xalqning turli yo'nalishdagi pedagogik tadbirlari sinkretik tarzda birvarakaiiga olib borilgani uchun Xalq pedagogikasiga alohidalik emas, umumiylilik xosdir.

Xalq pedagogikasining beshinchi belgisi uning keng yoyilganligidir. Xalq pedagogikasiga oid amallar muayyan etnik birlikning hammasiga birday tatbiq qilinadi. Muayyan shaxslarning xohishirodasi qandayligidan qat'i nazar, xalqning

har bir vakili uning tarbiya va yashash tarziga doyr talablariga rioya etishga majbur. Xalq pedagogikasi talablarini bajarishda tarbiyalanuvchining istaklari inobatga olinmaydi. Xalq pedagogikasining oltinchi xususiyati bu - muayyan etnik birlikning turmush tarzida namoyon bo'lishidir.

Xalq pedagogikasi empirik tabiatga ega bo'lib, jamiyat a'zolari hayotini yo'lga qo'yishga qaratilgan va uning qoidalari muhokama uchun emas, balki turmush mobaynida amal qilish uchundir.

Xalq tajribasidan joy olgan eng ilg'or pedagogik bilimlar, malaka va ko'nikmalar, zamonaviy ta'lim muassasalarini va oila tarbiyaviy tizimida yoshlarni tarbiyalashda xalq maqollari, xalq ertaklari, ibratli hikoya va rivoyatlar orqali tarbiyaning asosiy maqsad va vazifalarini hal etish imkoniyatlari mavjud. Tarbiyaning asosiy maqsadi esa har tomonlama yetuk, yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishdir. Zero, xalq pedagogikasi qadriyatlari ma'naviy yetuk, malakali mutaxassislarni tayyorlash, komil inson tarbiyasi hamda ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirib beruvchi muhim manbadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Форобий Абу Наср. Рисолалар. -Т.: Фан, 1975
2. Т.Мирзаев. Ходи Зариф. -Т.: Ф.Гулом, 1967
3. D.M.Begmatova. O'zbek oilalarida yoshlarningkasbiy ijtimoiylashuvi. Monografiya. -Samarqand:SamDChTI, 2020. -142 b.
4. Muxtarovna B.D. OILADA YOSHLARNING KASBIY IJTIMOIYLASHUVINI TA'MINLASHDA O'ZBEK XALQ IJODIYOTI //INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. –2021. –T. 2. –No. 5. –S. 25-33.
5. Mukhtarovna B. D., Kudratovna D. N. PROFESSIONAL SOCIALIZATION OF YOUTH IN FAMILY EDUCATION. –2022.